

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi



Bugun, 4-oktabr kuni Budapesht shahrida Vengriya Parlamentining binosi ro'parasidagi Layosh Koshut nomidagi maydonda rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Maydonda oliy martabali mehmon sharafiga piyoda va otliq askarlardan iborat faxriy qorovul saf tortdi. Harbiy orkestr ikki mamlakat davlat madhiyalarini ijro etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Prezidenti Katalin Novak rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Marosim yakunida faxriy qorovul tantanali ravishda saf tortib o'tdi.





Manba